



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdulkarimova Dinara Rustamxanovna

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Abdulkarimova Dinara Rustamkhanovna

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИССЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVASION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
Abduxalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
Sodikov Zokir Rustamovich	
YASHIL TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIYAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ.....	101
Даулетиярова Шахло	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА.....	109
Кадилова Хадича Тураевна	
XORIY MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR.....	115
D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	125
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI.....	133
Botirova Raximaxon Abdujabbarovna	
QURILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOLIYAVIY TAHLILI.....	136
Musayeva Shoirazimovna	



KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH.....	144
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI PORTFELI TAHLILI.....	149
Madraximov Ilxom Kamilovich	
FOYDA SOLIG'INING O'ZIGA XOS MUAMMOLI JIHATLARI.....	154
Zaripov Xusan Baxodirovich	
AGRAR SEKTORNI INNOVATSION MODERNIZATSIYA QILISHDA INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISH MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	159
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	163
Jalilov Jamshid G'anjionovich, Safarov Zavqiddin Zokir o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	168
Xayitboev Abror Quvondiqovich	
РОЛЬ СМЕШАННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ (BLENDED FINANCE) В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ КОММУНАЛЬНЫХ УСЛУГ: УРОКИ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН.....	174
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KORXONALARDA STRATEGIK BOSHQARUV.....	180
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
BANK TIZIMIDA MARKETING AHAMIYATI VA BANK MARKETINGI.....	184
Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORJIY KREDIT MABLAG'LARINI JALB KILISH HUQUQIY JIHATLARI.....	189
Qulliyev Anvar Zayniddinovich	
TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA CHAKANA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	194
Alimov Umid O'ktambayevich	
MAHSULOTLARNING RAQAMLI PASPORTI TIZIMINI JORIY ETISH OMILLARI VA TO'SIQLARI.....	200
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
KORXONALARDA FOYDA VA ZARARLARNI TAHLIL QILISHDA INNOVATSION METODLAR AHAMIYATI.....	207
Ernazarov Ortiq Eshnazarovich, Farog'at Xo'jabekova	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ БЛАГОСОСТОЯНИЕ, А ТАКЖЕ НОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ.....	212
Останов Эгамберди	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYALASH: MOHIYATI VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI.....	218
Xakimova Xulkar Xamidovna	
QORAQALPOG'ISTON VA XORAZM OZIQ-OVQAT SANOATINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI HAMDA UNI YANADA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	224
Tleuov Niyetulla Raxmanovich	
OILAVIY KORXONALARNING IQTISODIY TIZIMDAGI O'RNI.....	230
Shadiyeva Gulnora Mardiyevna, Rustamova Zarina Rustamovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARI.....	234
Sadikov Shoxrux Shuxratovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARNING AHAMIYATI.....	238
Asenbaeva Aydaygul Edenbaevna	
BARQARORLIK VA YASHIL MENEJMENT: ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR VA AMALIY AHAMIYATI.....	242
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	



HUDUDLARNING IQTISODIY SALOHİYATINI INNAVATSION-INVESTITSION BOSHQARISH STRATEGIYASI VA MEXANIZMI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	247
Maqsudova Malohatxon Maqsudovna, Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETINI 2026-YILGI SOLIQ SIYOSATINING TAHLILI VA XALQARO SOLISHTIRMA YONDASHUVI	251
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	256
Mamataliyeva Dilnoza Raxmonovna	
TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA INVESTITSİYALAR SHAKLLANISHI VA ULARNI SAMARALI BOSHQARISH YO'NALISHLARI	259
To'rayev Jasurali To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA SAVDO TASHKILOTLARINING FAOLIYATI VA RIVOJLANISH HOLATI	264
B. Sulaymonov	
NAMANGAN VILOYATIDA "YASHIL IQTISODIYOT" MODELIGA O'TISH JARAYONIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY FAOLLIGI	270
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	274
Xoshimov Pazliddin Zuxurovich	
KICHIK BIZNES ORQALI ISH O'RINLARINI YARATISH STRATEGIYALARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	278
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	



KICHIK BIZNES ORQALI ISH O'RINLARINI YARATISH STRATEGIYALARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA

Ergasheva Nigora Abdigapparovna

Namangan davlat texnika universiteti

08.00.15-“Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti” ixtisosligi tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0006-9781-6066

Email: ergashevarogin095@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola Namangan viloyatida kichik biznes subyektlari orqali ish o'rinlarini yaratish strategiyalarini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mahalliy resurslardan samarali foydalanish, innovatsion yondashuvlar, davlat qo'llab-quvvatlashi va malaka oshirish kabi omillar kichik biznesning ish o'rinlarini yaratishdagi samaradorligini belgilaydi. Maqolada viloyat bo'yicha statistik ma'lumotlar va amaliy misollar orqali MKBning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati yoritilgan. Shu bilan birga, ekologik mas'uliyat va raqamli transformatsiya orqali ish o'rinlarini yaratish hamda barqaror rivojlanishga erishish imkoniyatlari ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, ish o'rinlari yaratish, ishchi kuchi, Namangan viloyati, innovatsion yondashuvlar, davlat qo'llab-quvvatlashi, ekologik mas'uliyat, mahalliy iqtisodiyot.

Abstract. This article analyzes strategies for creating jobs through small businesses in Namangan region. The results of the study show that factors such as effective use of local resources, innovative approaches, state support, and training determine the effectiveness of small businesses in creating jobs. The article highlights the economic and social importance of small businesses through statistical data and practical examples by region. At the same time, the opportunities for creating jobs and achieving sustainable development through environmental responsibility and digital transformation are also considered.

Key words: small business, job creation, workforce, namangan region, innovative approaches, state support, environmental responsibility, local economy.

Аннотация. В данной статье анализируются стратегии создания рабочих мест посредством малого бизнеса в Наманганской области. Результаты исследования показывают, что такие факторы, как эффективное использование местных ресурсов, инновационные подходы, государственная поддержка и обучение, определяют эффективность малого бизнеса в создании рабочих мест. В статье рассматривается экономическая и социальная значимость малого бизнеса на основе статистических данных и практических примеров по регионам. Также рассматриваются возможности создания рабочих мест и достижения устойчивого развития посредством экологической ответственности и цифровой трансформации.

Ключевые слова: малый бизнес, создание рабочих мест, рабочая сила, наманганская область, инновационные подходы, государственная поддержка, экологическая ответственность, местная экономика.



KIRISH

Kichik biznes mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki aholi bandligini oshirishda ham katta rol o'ynaydi. Dunyo amaliyotida kichik va o'rta biznes subyektlari ish o'rinlarining eng ko'p manbai sifatida qaraladi, chunki ular bozor sharoitlariga tez moslashadi, sarmoya talablarini minimal darajada talab qiladi va mahalliy resurslarni samarali ishlatadi. Shu jihatdan kichik biznesning rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. O'zbekistonda, jumladan Namangan viloyatida, kichik biznesni rivojlantirish siyosati so'nggi yillarda alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari, mikroreditlar, grantlar va malaka oshirish dasturlari orqali bandlikni oshirish strategiyalari ishlab chiqilgan. Bu esa nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratishga, balki aholining turmush darajasini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Kichik biznesning ish o'rinlarini yaratishdagi samaradorligi turli strategiyalar orqali oshiriladi. Birinchidan, investitsion strategiyalar orqali subyektlarga kapital kiritish yangi ish o'rinlarini yaratadi va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytiradi. Ikkinchidan, sektoriyal rivojlanish strategiyalari kichik biznesni xizmat ko'rsatish, chakana savdo, qishloq xo'jaligi va ekologik loyihalar kabi yo'nalishlarda rivojlantirish orqali bandlikni oshiradi. Uchinchidan, davlat va xususiy sektor hamkorligi kichik biznesning rivojlanishini rag'batlantirib, yangi ish o'rinlarini yaratish jarayonini tezlashtiradi. Shuningdek, innovatsion strategiyalar kichik biznesning raqamli yechimlar, startaplar va texnologik yangiliklar joriy etish orqali samaradorligini oshiradi. Bu yondashuv ishchi kuchining malakasini oshirishga, yangi ish o'rinlarini yaratishga va mahalliy bozor talablariga moslashuvchanlikni kuchaytirishga yordam beradi. Mazkur maqolada Namangan viloyati misolida kichik biznes orqali ish o'rinlarini yaratish strategiyalari tahlil qilinadi, mavjud istiqbollar va muammolar ko'rib chiqiladi hamda samarali yo'nalishlar tavsiya etiladi. Bu esa nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham aholi bandligini oshirish va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznesning ish o'rinlarini yaratishdagi roli global miqyosda so'nggi 20 yilda keng tadqiq etila boshladi. Ko'plab tadqiqotchilar kichik biznesni iqtisodiy o'sish va bandlikni oshirishda asosiy vosita sifatida talqin qiladi. Dunyo Banki va OECD hisobotlarida kichik va o'rta biznes (MKB) ish o'rinlarini yaratish hamda mahalliy iqtisodiyotni rag'batlantirishda asosiy lokomotiv ekanligi ta'kidlangan[1]. Shu bilan birga, tadqiqotlarda MKBning mikroiqtisodiy darajadagi ahamiyati, ya'ni oilaviy korxonalar va kichik ishlab chiqarish tarmoqlari orqali mahalliy iqtisodiy faollikni oshirish imkoniyati ham ko'rsatilgan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlari o'z resurslarini samarali ishlatadi va bozor talabiga tez moslashadi, bu esa yangi ish o'rinlarini yaratish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi[2]. Bayramov va jamoadoshlari 2024-yilda rivojlanayotgan mamlakatlarda MKBning iqtisodiy o'sish va bandlikni oshirishdagi strategik rolini tahlil qilgan[3]. Ularning tadqiqotida nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratish, balki mavjud ish o'rinlarini saqlash va malakali ishchi kuchini jalb qilish mexanizmlari ham alohida ta'kidlangan. O'zbekiston kontekstida ilmiy manbalar kichik biznes orqali ish o'rinlarini yaratish mexanizmlarini alohida yoritadi. Vahidova 2023-yilda davlat tomonidan beriladigan grantlar, mikroreditlar va soliq imtiyozlarining MKB faoliyati va bandlikka ta'sirini tahlil qiladi[4]. U mamlakatning turli hududlaridagi kichik biznes subyektlari faoliyati o'rtasida farqlar mavjudligini, shuningdek, investitsion sarmoyaning ish o'rinlarini yaratishga bevosita ta'sir qilishi haqida batafsil ma'lumot beradi. Shadyeva 2025-yilda MKBni rivojlantirish strategiyalarini — kreditlash tizimi, yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va investitsion mexanizmlarni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvlar sifatida ko'rib chiqqan[5]. Tadqiqotlar MKBning biznes rejaları, bozor tadqiqotlari va innovatsion yondashuvlarni joriy etish qobiliyati yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim omil ekanini ko'rsatadi.

Xorijiy adabiyotlar ham strategik tavsiyalar bilan boyitilgan. Masalan, Porter va Linde 1995-yilda MKBning ekologik va texnologik innovatsiyalarni tezroq qabul qilishi orqali ish o'rinlarini yaratish hamda samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini ko'rsatadi[6]. Ularning tadqiqotida kichik korxonalar katta korxonalarga nisbatan qaror qabul qilish tizimi tezligi va moslashuvchanligi tufayli yangi ish o'rinlarini yaratishda afzal ekanini ta'kidlangan. Shuningdek, xalqaro tadqiqotlar (Shaydhojaeva, 2025) MKBni qo'llab-quvvatlashning eng samarali yo'llarini, jumladan inkubatorlar, raqamli platformalar va ventur kapitalni tahlil qiladi[7]. Namangan viloyati bo'yicha mavjud ilmiy ishlar viloyat iqtisodiyoti qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va to'qimachilik sanoatiga tayanishi oqibatida MKBning ish o'rinlarini yaratishdagi potensialini yuqori deb baholaydi. Yormatova 2024-yilda hududiy infratuzilmalarni modernizatsiya qilish orqali kichik biznesning ish o'rinlarini yaratish salohiyatini oshirish zarurligini ta'kidlaydi[8]. Tahlillar MKBning raqamli transformatsiya, energiya tejankor texnologiyalar va ekologik xizmatlar bozoriga kirishi natijasida ish o'rinlari yaratishda qo'shimcha imkoniyatlar paydo bo'lishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, MKBning moslashuvchanligi, innovatsiyalarni tez joriy etish qobiliyati va ekologik mas'uliyatining ortib borishi ish o'rinlarini yaratish jarayonida hal qiluvchi omil hisoblanadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Namangan viloyatida kichik biznes orqali ish o'rinlari yaratilishini o'rganishda ma'lumotlar rasmiy statistika bazalari, hududiy bandlik boshqarmasi ma'lumotlari, tadbirkorlar bilan o'tkazilgan yarim strukturalangan suhbatlar va amaldagi dasturlar tahlili orqali yig'ildi. Olingan ma'lumotlar dinamik qiyosiy tahlil, korrelyatsion bog'liqliklarni aniqlash hamda sifatli kontent tahlili yordamida baholanib, hududiy mehnat bozori tendensiyalari aniqlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Namangan viloyatida kichik biznes subyektlarining iqtisodiy jarayondagi o'rni, ayniqsa, yangi ish o'rinlari yaratishdagi salohiyati hududiy rivojlanish strategiyalarining eng muhim yo'nalishlaridan birini tashkil etadi. Viloyatning demografik tuzilmasi, mehnat bozori talabining o'sib borayotgani va iqtisodiy faol aholining ulushi yuqoriligi kichik biznesga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi. Tahlillar ko'rsatadiki, viloyatda kichik biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgani, infratuzilmaning izchil modernizatsiya qilinayotgani, kreditlar va soliq imtiyozlari orqali rag'batlantirish mexanizmlarining tatbiq etilayotgani mehnat bozorida yangi ish o'rinlarining shakllanishini ta'minlayotgan asosiy omillardir. Shu bilan birga, kichik biznesning moslashuvchanligi, yangiliklarni tez joriy etish qobiliyati va xizmat ko'rsatish hamda ishlab chiqarish segmentlaridagi keng qamrovli imkoniyatlari uni viloyat iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan sektor sifatida e'tirof etishga asos bo'ladi.

Namangan viloyatidagi kichik biznesning asosiy tarmoqlarini qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati, chakana savdo va keng ko'lamli maishiy xizmatlar tashkil etadi. Har bir tarmoqning o'ziga xos bozor mexanizmlari, ishchi kuchiga talab darajasi va texnologik yangilanish ehtiyojlari mavjud bo'lib, ular tahlil jarayonida alohida e'tibor talab qiladi. Masalan, qishloq xo'jaligi sohasi viloyatning tabiiy-iqlimiy sharoitlariga mos ravishda asosan mavsumiy ishchi kuchiga talab yuqori bo'lgan faoliyat turi sanaladi. Kichik fermer xo'jaliklari va kooperatsiyalar hali ham asosiy bandlik yaratishni davom ettirmoqda. Shu bilan birga, xizmatlar sektori viloyatdagi eng barqaror va o'sish sur'atlari nisbatan yuqori bo'lgan tarmoqlardan biri sifatida ajralib turadi. Bu yo'nalishda yangi xizmat turlari, xususan, raqamli platformalar asosidagi xizmatlar, logistika, kichik savdo va maishiy xizmatlar segmentining tez kengayib borayotgani kuzatiladi.

Tahlillar ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlari yangi ish o'rinlarini yaratishda yirik korxonalarga nisbatan tezkorroq va moslashuvchanroq natija berishi bilan ajralib turadi. Sababi, kichik biznesda tashkiliy quyi pog'onalar soni kam, qaror qabul qilish jarayoni tez, resurslardan foydalanish esa soddada mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, bozor ehtiyojlariga moslashish va iste'molchilar talabiga tez javob qaytarish qobiliyati kichik korxonalar mehnat bozorida doimiy talab yaratuvchi iqtisodiy kuch sifatida shakllanishiga olib kelgan. Masalan, energiya tejankor texnologiyalarni joriy etgan kichik ishlab chiqarish subyektlari qisqa muddatda yangi ish o'rinlarini yaratishga muvaffaq bo'lmoqda. Bundan tashqari, ekologik xizmatlar, qayta ishlash, kichik logistika, elektron tijorat va IT xizmatlari kabi sohalarda kichik biznesning roli yildan yilga ortib borayotgani kuzatilmoqda.

Namangan viloyatida kichik biznesning ish o'rinlari yaratish salohiyatiga bevosita ta'sir qiluvchi omillardan biri — moliyaviy resurslarning mavjudligi va ulardan foydalanish samaradorligidir. Kichik biznesga taqdim etilayotgan mikrokreditlar, imtiyozli kreditlar, davlat kafolatlari va subsidiyalarning o'z vaqtida berilishi kichik korxonalar faoliyatida muhim o'rin tutadi. Moliyaviy qo'llab-quvvatlashning barqarorligi va shaffofligi kichik korxonalarning investitsiya loyihalarini faol amalga oshirishiga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishiga va yangi ish o'rinlarini yaratishiga imkon yaratadi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, kichik biznesning moliyaviy ta'minoti kuchli bo'lgan tarmoqlarda ish o'rinlarini yaratish sur'atlari yuqori, investitsiya jalb qilish imkoniyatlari keng va texnologik yangilanish jarayonlari tez amalga oshiriladi.

Kichik biznesning innovatsion faoliyati va raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi ham viloyat miqyosida ish o'rinlari yaratish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Raqamli platformalar orqali savdo, xizmat ko'rsatish, marketing, elektron hisob-kitob tizimlarini joriy etgan korxonalar nafaqat xarajatlarni kamaytirish, balki xizmat ko'lamini kengaytirish orqali yangi bandlik shakllarini yaratishga muvaffaq bo'lmoqda. Kichik korxonalarda raqamli transformatsiya jarayoni viloyat iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, ushbu jarayon biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, xizmatlar sifatini oshirish va iste'molchilar bilan tezkor muloqotni ta'minlash orqali qo'shimcha bandlikni shakllantiradi.

Davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, xususan soliq imtiyozlari, subsidiyalar, grantlar va tadbirkorlik faoliyatiga oid soddalashtirilgan yondashuvlar kichik biznesning ish o'rinlari yaratish salohiyatining oshishida muhim rol o'ynaydi. Namangan viloyatida tadbirkorlarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun keng ko'lamli dasturlar mavjud bo'lib, ularda yoshlar, ayollar, kam ta'minlangan fuqarolar va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun maxsus kredit dasturlari, grant loyihalari va bandlik dasturlari tashkil etilgan. Ushbu tashabbuslarni samarali amalga oshirish kichik biznesning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydi, natijada ijtimoiy ahamiyatga



ega bo'lgan yangi ish o'rinlari paydo bo'ladi. Shu boisdan, davlat siyosatining izchil davom ettirilishi viloyat mehnat bozorining barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichik biznesning hududiy infratuzilma bilan bog'liq muammolari ham ish o'rinlari yaratish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Infratuzilmaning rivojlanganligi, transport tarmoqlarining holati, elektr energiyasi va aloqa xizmatlarining sifati, logistika infratuzilmasining mavjudligi kichik korxonalarning o'sishi va yuqori samaradorlik bilan faoliyat yuritishi uchun zarur shart hisoblanadi. Namangan viloyatida infratuzilma bo'yicha olib borilayotgan modernizatsiya ishlari kichik biznesning geografik jihatdan kengayishiga, chekka hududlarda yangi faoliyat turlarining shakllanishiga va mehnat bozorida yangi bandlik nuqtalarining paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Malakali kadrlar masalasi ham kichik biznesning ish o'rinlari yaratish jarayonidagi eng muhim determinantlardan biridir. Namangan viloyatida yoshlar ulushi yuqoriligi, kasb-hunar maktablarining faoliyati, oliy ta'lim muassasalari sonining ko'pligi mehnat bozorida yosh ishchi kuchining mavjudligini ta'minlaydi. Ammo ishchi kuchining malaka darajasi, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish qobiliyati va kasbiy ko'nikmalarning yetishmasligi kichik biznesning rivojlanish sur'atlarini cheklashi mumkin. Shu bois, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, amaliy ko'nikmalarni kuchaytirish va kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish orqali kichik biznesning samaradorligini yanada mustahkamlash mumkin.

Namangan viloyatida kichik biznes faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratish bilan, balki mahalliy aholi bandligini oshirish, yoshlar migratsiyasini kamaytirish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash bilan ham bevosita bog'liq. Kichik biznesning barqaror faoliyat yuritishi viloyat iqtisodiyotining umumiy o'sish tendensiyalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan, kichik biznesning ekologik mas'uliyatli faoliyati, innovatsion texnologiyalarni joriy etishi, energiya tejankor yechimlar asosidagi ishlab chiqarishni kengaytirishi viloyat iqtisodiyoti uchun yangi bosqichni belgilab beradi. Bu jarayon ekologik xavflarni kamaytirish, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan ishlab chiqarish tizimlarini shakllantirish hamda yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish imkonini yaratadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, Namangan viloyatida kichik biznes subyektlarining ish o'rinlari yaratish strategiyalari ko'p qirrali, tizimli va iqtisodiy hamda ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog'liq. Kichik biznesning innovatsion qobiliyatlari, moliyaviy imkoniyatlari, davlat qo'llab-quvvatlashi, infratuzilma sifati, kadrlar tayyorlash tizimi va hududiy iqtisodiy sharoitlar o'zaro uyg'unlashgan holda yangi bandlik imkoniyatlarini yaratadi. Strategik yondashuvlar va tizimli boshqaruv asosida kichik biznes Namangan viloyatida barqaror iqtisodiy o'sishning lokomotivi sifatida shakllanishi kutiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, Namangan viloyatida kichik biznes subyektlarining ish o'rinlarini yaratish strategiyalari quyidagi asosiy yo'nalishlarga asoslanadi:

- Mahalliy resurslardan samarali foydalanish: qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va to'qimachilik tarmoqlarida ish o'rinlarini oshirish.

- Innovatsion yondashuvlar: raqamli texnologiyalar va energiya tejankorlik yechimlarini joriy etish.
- Davlat qo'llab-quvvatlashi: grantlar, mikrokreditlar va soliq imtiyozlari orqali ish o'rinlarini rag'batlantirish.
- Malaka oshirish va kadr tayyorlash: ishchi kuchining sifatini oshirish va bandlikni barqaror ta'minlash.

Bu natijalar adabiyotlar tahlilida ko'rsatilgan nazariy jihatlar bilan uyg'un keladi va MKBning ish o'rinlarini yaratishdagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, hududiy jihatdan Namangan viloyati misolida keltirilgan ma'lumotlar mintaqaviy siyosat hamda amaliy yechimlar ishlab chiqishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Namangan viloyatida kichik biznesning ish o'rinlarini yaratish strategiyalari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatlarni ham qamrab oladi. Bandlikni oshirish orqali viloyat aholisi orasida yoshlar mehnat migratsiyasi kamayadi, qishloq hududlarida mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkoniyati ortadi. Ayniqsa, xizmat ko'rsatish va to'qimachilik tarmoqlarida kichik korxonalar nafaqat ish o'rinlari yaratadi, balki mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirishga, iste'mol va talab zanjirini mahalliyashtirishga xizmat qiladi.

Innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarni joriy etish, shuningdek ekologik mas'uliyatni oshirish kichik biznes subyektlariga yangi imkoniyatlar yaratadi. Energiya tejankor texnologiyalar va chiqindilarni boshqarish tizimlari MKBning xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirishga yordam beradi, bu esa o'z navbatida yangi ish o'rinlarini yaratish va ularni barqaror saqlashga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, Namangan viloyatida kichik biznesning innovatsion va ekologik yondashuvlar orqali iqtisodiy samaradorligini oshirish istiqbollari aniq ko'zga tashlanadi.

Davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlari strategik ahamiyatga ega. Grantlar, mikrokreditlar, soliq imtiyozlari va hududiy sarmoyalar MKBning faoliyatini rag'batlantiradi hamda ish o'rinlarini kengaytiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, davlat qo'llab-quvvatlashi mavjud bo'lmagan hollarda kichik biznesning ish o'rinlarini yaratish



salohiyati sezilarli darajada kamayadi. Shu bilan birga, MKB subyektlarining moliyaviy resurslar va grantlardan samarali foydalanish qobiliyati viloyat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Malaka oshirish va kadr tayyorlash strategiyasi ham ish o'rinlarini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Xodimlarning malakasi oshirilganda ish o'rinlarining sifati ortadi, mehnat unumdorligi ko'tariladi va bu kichik biznesning barqarorligini ta'minlaydi. Shu nuqtayi nazardan, malaka oshirish dasturlari va hududiy trening markazlari MKB faoliyatini qo'llab-quvvatlashning samarali vositasi sifatida qaraladi.

Umuman olganda, Namangan viloyatida kichik biznesning ish o'rinlarini yaratish strategiyalari mahalliy resurslardan samarali foydalanish, innovatsion yondashuvlar, davlat qo'llab-quvvatlashi va malaka oshirish tamoyillariga asoslangan holda rivojlanadi hamda mintaqaviy siyosat va iqtisodiy strategiyalarni ishlab chiqishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu strategiyalar viloyatdagi bandlikni oshirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va innovatsion hamda ekologik yo'nalishlarda kichik biznesning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. World Bank (2022). Small Enterprises Development Report. Washington D.C.: World Bank.
2. OECD (2021). SME and Job Creation Policies. Paris: OECD Publishing.
3. Bayramov, A., Annaev, B., Annagurbanova, D. (2024). Roly malogo i srednego biznesa v ekonomike razvivayushchikhsya stran. XN.
4. Vahidova (2023). Roly gosudarstvennykh institutov v razvitii i podderzhke predprinimatel'stva v Uzbekistane. In-Academy.
5. Shadyeva, (2025). Razvitie malogo biznesa v Uzbekistane: strategii podderzhki i perspektivy rosta. Interjournal.
6. Porter, M., Linde, C. (1995). Toward a New Conception of the Environment-Competitiveness Relationship. Journal of Economic Perspectives.
7. Shaydhojaeva, S. (2025). Razvitie Malogo Biznesa i Predprinimatel'skoy Deyatel'nosti na Osnove Zarubezhnogo Opyta. Innoist.
8. Yormatova (2024). Regional Economy and Small Business Development in Namangan. Namangan State University Press.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
